

Kengayish

Tushuntirish

Ko'krak kengayishi ko'kraklarning shishishidir. Bu emizadigan onalarda ko'p uchraydigan holatdir. Bu odatda tug'ruqdan keyingi birinchi haftada sut bezi ishlashni boshlaganda yuz beradi. Shishish sut oqimini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bu chaqaloqning emishini qiyinlashtirishi mumkin. Ko'krakdan bo'shatilmasa, sut kelishi kamayishi mumkin. Agar ko'krak kengayishi davolanmasa, onada mastit deb nomlangan ko'krak infeksiyasi yuz berishi mumkin.

Belgilari

Kengayish alomatlariga ko'krakning shishishi, qizishi, qattiqlashishi yoki og'rishi kiradi.

Muolaja

Kengayishga chora sifatida tavsiya etilgan muolaja bu har bir-uch soatda emizish yoki har uch soatda 15 daqiqa nasos bilan sutni sog'ib tashlashdir. Agar chaqaloq ko'krakni emishga qiyinlashtirsa, emizishdan oldin ikki-uch daqiqa ko'krakni qo'lingiz bilan siqing yoki nasos bilan sog'ing. Ibuprofen (ibuprofen) kabi reseptsiz beriladigan dorilar shishish va og'riqni kamaytiradi. Ko'krakka sovuq kompress qo'yish ham shishishni kamaytiradi.

Quyidagi holatlarda shifokorga qo'ng'iroq qiling:

Agar simptomlaringiz ko'krak qizishi, qizarishi, shishishi, ko'krak qattiqlashishi bilan birga isitma, titroq va grippga o'xshash alomatlar paydo bo'ladigan darajada yomonlashsa, shifokoringizga qo'ng'iroq qiling.

Profilaktika

Chaqaloqni kerak miqdorda emizing va quruq sut kukunini berishdan tiyiling. Agar bola ko'krakni emmasa, har uch soatda, hatto kechasi ham ko'krakni nasos bilan sog'ing.

Biz bilan bog'lanish

Ushbu salomatlik mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish uchun 513-636-2326 raqami orqali Ko'krak bilan oziqlantirish tibbiyot markaziga (Center for Breastfeeding Medicine) qo'ng'iroq qiling.

Last Updated: 03/2022, per Olga Tamayo